

IQTISODIY TAHLILDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI QO‘LLASH

Ibragimov G. A.

TDIU, "Moliyaviy tahlil" kafedrası professori i.f.n.

Gibragimov63@gmail.com

Xo‘jalik yurituvchi sub‘yektlar faoliyatini iqtisodiy tahlilini amalga oshirishda raqamli texnologiyalar asosida ma‘lumotlarni o‘rganish va tahlil qilishga o‘tish dolzarb muammolardan biri sifatida kun tartibiga chiqarilganiga ko‘p vaqt bo‘lgani yo‘q. Bunda tahlilning axborot ta‘minoti, iqtisodiy tahlilda qo‘llaniladigan raqamli texnologiyalar va uning komponentlari, raqamli ma‘lumotlarni saqlash, tahlil o‘tkazish uchun maxsus raqamli texnologiyalar, biznes faoliyatning kuchli jihatlari va zaif tomonlarini aniqlash jarayonida raqamli texnologiyalarni qo‘llash hal etilishi zarur bo‘lgan muhim vazifalar sirasiga kiradi. Raqamli texnologiyalarni iqtisodiy tahlilni o‘tkazishda qo‘llash mazkur fanni o‘rganishda tegishli jihatlarni hisobga olishdan boshlab, amaliyotda xo‘jalik yurituvchi sub‘yektlar moliyaviy-xo‘jalik faoliyatini tahlil etishda ulardan nazariy, uslubiy, tashkiliy va amaliy asoslarga tayangan holda keng foydalanishni o‘z ichiga oladi.

Iqtisodiy tahlilda raqamli texnologiyalarni qo‘llashning ahamiyati va mazmunini aniqlashtirish, usullarini yaratish birinchi navbatda amalga oshirilishi zarur bo‘lgan asosiy vazifa sifatida qo‘yilishi kerak. Jumladan, iqtisodiy tahlilda raqamli texnologiyalarni qo‘llashning mohiyatini ochib berish iqtisodiyot sub‘yektlarini boshqarishda iqtisodiy tahlilning raqamli texnologiyalar tizimi tushunchasini aniqlashtirish vositasida amalga oshiriladi. Bunda iqtisodiy axborotlarning tarkibi va ularni turkumlash buxgalteriya hisobi va tahlilning informatsion jarayonlarida raqamli texnologiyalarni qo‘llash masalalari bilan uyg‘unlashtirib yoritib berilishi lozim. Iqtisodiy tahlilda raqamli texnologiyalar tizimini ta‘minlovchi komponentlarni tavsiflash fanning mazmuni va mohiyatini to‘liqroq ochib berishga imkoniyat yaratadi.

Amaliyotda qo‘llaniladigan informatsion-tahliliy tizim, uning tarkibiy va funksional jihatdan o‘ziga xos xususiyatlari raqamli texnologiyalar vositasida amalga oshiriladigan iqtisodiy tahlil usullarini qo‘llash yordamida ochib beriladi. Ushbu holatda informatsion-tahliliy tizimlar vazifalari, ma‘lumotlarni saqlash vositalarini atroflicha o‘rganish talab etiladi. Asosiy vazifalardan biri sifatida informatsion-tahliliy tizimlarning asosiy komponentlari tavsifini yoritish belgilanadi. Vazifani bajarish uchun ma‘lumotlarni saqlash vositalarini yaratish va ulardan foydalanishda qo‘llaniladigan vositalar, tezkor tahlil vositalari va intellektual tahlil vositalarini asosiy komponentlar sifatida o‘rganib chiqish zarur.

Tahlil o‘tkazish uchun maxsus raqamli texnologiyalarni qo‘llash, shu jarayonda raqamli informatsion ma‘lumotlarni saqlashni ta‘minlash masalalari navbatdagi vazifa sifatida yuzaga chiqadi. Fikrimizcha, dastlabki davrda hozirgi

BARQAROR IQTISODIY O‘SISH ORQALI AHOLI TURMUSH FAROVONLIGINI OSHIRISH MASALALARI

kunda mavjud raqamli tizimlardan foydalanish iqtisodiy tahlilda raqamli texnologiyalarni qo‘llashni tezkor joriy qilish imkonini beradi. Tahlilda qo‘llash mumkin bo‘lgan tizimlardan biri - Microsoft SQL Server - relyatsion (o‘zaro bog‘liq) (relation – o‘zaro munosabat, bog‘liqlik, aloqa) ma’lumotlar bazasini boshqarish tizimi. Mazkur tizimda ma’lumotlarni saqlash, tezkor tahlil vositalarini yaratish va qo‘llash, shaxsiy va korporativ ma’lumotlar bazasi bilan ishlash masalalarini hal qilish imkoniyatlari mavjud. Tahlilda qo‘llash mumkin bo‘lgan yana bir tizim - Oracle tizimi. Ushbu tizimdan imitatsion modellashtirishni dasturiy vositalari va instrumentlarini o‘zida umumlashtirgan tizim sifatida foydalaniladi. Business Objects axborotlarni olish, tahlil qilish va tarqatish, korporativ hisobot tizimlarini yaratish vositalari majmuasi ham iqtisodiy tahlilda raqamli texnologiyalarni qo‘llash maqsadlarini amalga oshirish imkoniyatini beradi. SAS Institute tizimi tahlilning barcha turlarini amalga oshiruvchi dasturlar majmuasi sifatida qo‘llanilishi mumkin. Alohida vazifa sifatida majmuadagi biznes faoliyatini boshqarish tizimlarini modellashtirish vositalarini qo‘llashni yo‘lga qo‘yishni belgilash mumkin. Majmua komponentlarida yaratilgan hisobot tizimlaridan tahlil jarayonida foydalanish iqtisodiy tahlilni amalga oshirish oldiga qo‘yilgan vazifalarni hal etishga imkon beradi.

Raqamli tizimlarni iqtisodiy tahlil amaliyotida qo‘llash tahlil jarayonini shaffofligini ta’minlash, sarflanadigan vaqt va moddiy hamda moliyaviy resurslarni iqtisod qilish, tahlil natijalari aniqligini oshirish, tegishli manfaatdor tomonlarga xulosa va takliflarni tezkor yetkazib berish imkoniyatlarini yaratadi. Masalan, tahliliy dasturlardan «INEK-AFSP» dasturini tavsifi va amalga oshiradigan funksiyalarini o‘rganish ushbu dastur barcha faoliyat turlari bilan shug‘ullanadigan korxonalar va tashkilotlar moliyaviy xolati tahlili, xo‘jalik sub’yektlari monitoringi, kreditga layoqatlilikni baholash imkonini berishini ko‘rsatdi [1, 111]. «INEK-Analitik» dasturi esa korxonalar va tashkilotlar moliyaviy-xo‘jalik faoliyati barcha jihatlarining tahlili, biznes-rejalarni ishlab chiqish, tahlil qilish va baholash, investitsiyalar samaradorligini tahlili, ma’lumotlarni umumlashtirish vazifalarini hal etishda qo‘llanilishi mumkin [1, 115]. OLIMP: Fin-Ekspert dasturi korxonalar moliyaviy xolati va rivojlanishini bashorat ko‘rsatkichlari tahlili, korxonalar rivojlanishini asosiy moliyaviy-iqtisodiy ko‘rsatkichlarini hisoblashning ko‘p omilli modeli, balansni matematik-statistik bashoratlash va boshqaruv qarorlari oqibatlarini modellashtirishga mo‘ljallangan. «1C: Moliyaviy rejalashtirish» [2] vositasida korxonalar faoliyati ko‘rsatkichlarini monitoringi va tahlili amalga oshiriladi.

Iqtisodiy tahlilni dasturiy ta’minlash imkoniyatlarini har bir xo‘jalik yurituvchi sub’yekt alohida, o‘z talab va imkoniyatlaridan kelib chiqib baholashi maqsadga muvofiq bo‘lar edi. Bunda iqtisodiy tahlilni dasturiy ta’minlashning asosiy yo‘nalishlari baholagandan so‘ng, alohida dasturiy ta’minot turlarini tanlash mumkin bo‘ladi. Masalan, «Reyting ekspert» dasturida korxonalar investitsion jozibadorligini tahlil qilish imkoniyatlarini o‘rganish asosida korxonalar moliyaviy xolatini reyting baholashda ushbu dasturni qo‘llash

BARQAROR IQTISODIY O‘SISH ORQALI AHOLI TURMUSH FAROVONLIGINI OSHIRISH MASALALARI

imkoniyatlarini ko‘rib chiqish mumkin. “Kreditga layoqatlilik tahlilining skoring modeli” [3] elektron dasturining xo‘jalik yurituvchi subyektlarning kreditga layoqatliligi tahlili va uning natijalari asosida baholash imkoniyatlarini ham dasturni tanlashda ijobiy tomon sifatida belgilash mumkin. Shuningdek, elektron dastur vositasida xo‘jalik yurituvchi sub‘yektlarning kreditga layoqatliligini skoring modeli asosida baholashni amaliy jihatlari alohida o‘rganib chiqishni talab qiladi. Dasturlarni tanlash jarayonini optimallashtirish maqsadida «IC», «Alt - Invest», «BEST», «Ekspert Systems» kompaniyalari, «INEK» firmasi, «Parus» korporatsiyasi dasturiy mahsulotlari imkoniyatlari va xususiyatlari keng yoritib berilishi ularni qo‘llash amaliyotini osonlashtiradi deb hisoblaymiz.

Integrallashgan iqtisodiy informatsion tizimlar tarkibida analitik modullar alohida o‘rganilishi zarur bo‘lgan masalalar qatoriga kiritilishi zarur. Bunda buxgalteriya hisobi informatsion tizimlari tarkibidagi ajratilgan (alohida) tahliliy modullarni o‘rganishdan boshlab, iqtisodiy informatsion tizimlarga singdirilgan tahliliy funksiyalarni amalda qo‘llashga yondashuvlar ham qamrab olinishi kerak. Misol sifatida «Galaktika» tizimining «Moliyaviy tahlil» modulining imkoniyatlarini ko‘rib chiqish mumkin. Bunda moslashtiriladigan usullar yordamida biznes ma‘lumotlari asosida moliyaviy holatni baholash va tezkor tahlil qilish, moliyaviy hisobotlarni umumlashtirish (konsolidatsiyalash), buxgalteriya hisobining ma‘lum bir standarti bo‘yicha tuzilgan moliyaviy hisobotlarni boshqa standartlarga o‘tkazish vazifalarini bajarishni ko‘rib chiqish zarur bo‘ladi. Yoki, «Parus» tizimining «Moliyani boshqarish» moduli yordamida rejalashtirilgan va haqiqatdagi ko‘rsatkichlar hamda ularning o‘zaro farqlarini tezkor moliyaviy tahlili, informatsion tizim yordamida tahlil uslublarini moslashtirish vazifalari alohida hal etilishi zarur. «Info-Buxgalter» dasturidagi moliyaviy tahlil qismi (bloki) esa korxonada faoliyatini tahlil bo‘limlari bo‘yicha baholash va tahlil qilish imkonini beradi.

Iqtisodiy tahlilning avtomatlashtirilgan informatsion tizimlarini yaratish va ulardan foydalanish masalalari tahlilni asosiy qismlaridan biri bo‘ladi. Iqtisodiy tahlilning avtomatlashtirilgan informatsion tizimlarini yaratish va foydalanishga topshirishga asosiy yondashuvlarni yoritib berish mavzuga kirishda muhim o‘rin tutadi. Amaliy dasturiy ta‘minotni tanlashda baholash yo‘nalishlari va tanlov mezonlarini belgilab olish ham asosiy masalalardan hisoblanadi. Shu bilan birga, iqtisodiy tahlilda raqamli texnologiyalarni qo‘llash darajasi avtomatlashtirilgan informatsion tizimlarni yaratishda ommaviy dasturlarni moslashtirish imkoniyatlaridan keng foydalanish yo‘li bilan oshirilishi mumkin. Bunda, avtomatlashtirilgan informatsion tizimlarni foydalanishga qabul qilish mezonlari hal qiluvchi omillardan biri bo‘ladi.

Keltirilgan fikr-mulohazalar, takliflarni amaliyotda qo‘llash iqtisodiy tahlilda raqamli texnologiyalarni qo‘llash samaradorligini oshirish imkonini yaratadi deb ishonch bildiramiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

BARQAROR IQTISODIY O‘SHISH ORQALI AHOLI TURMUSH FAROVONLIGINI OSHIRISH MASALALARI

1. Ibragimov Gayratjon Artikovich. (2023). DIGITAL ECONOMY AND CHANGES IN BUSINESS ANALYSIS. International Journal of Research in Finance and Marketing (IJRFM), 13(12), 47-52. Retrieved from <https://euroasiapub.org/wp-content/uploads/IJRFM4Dec2023-Uzb.pdf>
2. Қличев, Б. (2022). Истеъмолчи манфаатлари асосида маҳсулотга баҳо шакллантириш масалалари таҳлили. Iqtisodiyot: tahlillar va prognozlar, 4 (20)-сон, 170-175.
3. Ibragimov Gayratjon Artikovich, Kurbanbaev Jurabek Eruvbayevich, Mukhiddinova Barno Gafurjanovna. (2019). The main differences between IFRS and NSA. International Finance and Accounting, 3(13), 1-12. Retrieved from <https://core.ac.uk/download/pdf/285998049.pdf>
4. Ibragimov Gayratjon Artikovich. (2023). DIGITALIZATION OF THE ECONOMY AND OPERATIONAL SAFETY. International Journal of Research in Economics and Social Sciences(IJRESS), 13 (11), 95-101. Retrieved from <https://euroasiapub.org/wp-content/uploads/IJRESS10-Nov2023-Uzb.pdf>
5. Ibragimov Gayratjon Artikovich. (2024). EKSPORT-IMPORT OPERATSIYALAR HISOBINI NAZORATINI TAKOMILLASHTIRISH YO‘NALISHLARI . World Scientific Research Journal, 23(2), 215–222. Retrieved from <http://www.wsjournal.com/index.php/wsrj/article/view/3034>
6. Самадова Наргиза Расуловна. (2024). КОРХОНА ИҚТИСОДИЙ САЛОҲИЯТИНИНГ КОМПЛЕКС ТАҲЛИЛИ COMPLEX ANALYSIS OF THE ECONOMIC COMPETENCE OF THE ENTERPRISE . World Scientific Research Journal, 23(2), 174–181. Retrieved from <http://www.wsjournal.com/index.php/wsrj/article/view/3030>
7. Gayratjon Ibragimov. (2024). TIJORAT BANKLARIDA MBMB TIZIMINI JORIY ETISH MASALALARI . World Scientific Research Journal, 23(2), 223–230. Retrieved from <http://www.wsjournal.com/index.php/wsrj/article/view/3035>
8. Пардаевич, Қ. Б. (2023). Хўжалик юритувчи субъектларда операцион фаолиятида ишлаб чиқариш ҳажмини ифодаловчи кўрсаткичлар таҳлили. *Scientific Journal of “International Finance & Accounting*, (2), 2181-1016.
9. Ibragimov Gayratjon Artikovich. (2024). MUQOBIL IQTISODIYOTNI SHAKLLANTIRISH: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR . World Scientific Research Journal, 23(2), 231–238. Retrieved from <http://www.wsjournal.com/index.php/wsrj/article/view/3036>
10. Қличев, Б. (2021, ноябрь 19). Ички аудит хизмати фаолиятида иқтисодий таҳлилни такомиллаштириш масалалари. Рақамли иқтисодиёт шароитида солиқ маъмуриятчилиги ва халқаро солиққа тортиш механизмини такомиллаштириш. Халқаро конференция материаллари тўплами. Тошкент, Ўзбекистон. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10531234>
11. Самадова Наргиза Расуловна. (2024). ХЎЖАЛИК ЮРИТУВЧИ СУБЪЕКТЛАР ИҚТИСОДИЙ САЛОҲИЯТИНИ ТАҲЛИЛ ҚИЛИШ ВА БАҲОЛАШ. World Scientific Research Journal, 26(3), 95–104. Retrieved from <http://www.wsjournal.com/index.php/wsrj/article/view/3252>
12. Ibragimov Gayratjon Artikovich. (2024). BIZNES JARAYONLARINI OPTIMALLASHTIRISH YO‘NALISHLARI . World Scientific Research Journal,

- 23(2), 239–246. Retrieved from <http://www.wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/3037>
13. Қличев, Б. (2021). Хўжалик юритувчи субъектларда ишбилармонлик фаоллиги таҳлили. Ақтуар молия ва бухгалтерия ҳисоби, 1 (3)-сон, 1-9. Retrieved from <https://finance.tsue.uz/wp-content/uploads/2021/06/4.-Қличев-Б.pdf>
 14. Қличев, Б. (2021). Инновацион фаолиятда асосий воситалар таҳлилини ташкил этиш масалалари. Инновацион иқтисодиёт: муаммолар, таҳлил ва ривожланиш истиқболлари. Қарши, Ўзбекистон. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10531216>
 15. Қличев, Б. (2021, сентябрь 30). Меҳнат мотивациясида моддий рағбатлантириш таҳлили. Молия-банк тизимида илм-фан, таълимнинг инновацион инфратузилмасини шакллантириш ва ривожлантиришда тошкент молия институтининг ўрни. Конференция материаллари тўплами, Тошкент, Ўзбекистон. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10531256>
 16. Қличев Бахтиёр Пардаевич. (2023). ОПЕРАЦИОН ФАОЛИЯТ НАТИЖАЛАРИНИ ИФОДАЛОВЧИ КўРСАТКИЧЛАР ТАҲЛИЛИ. World Scientific Research Journal, 21(1), 182–188. Retrieved from <http://www.wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/2876>
 17. Yuldashevna, R. U. (2022). Monitoring of Credit Risks as Financial Resources In Commercial Banks. *International journal of trends in business administration*, 12(1).
 18. Rozmatova Umida Yuldashevna. (2024). NOMODDIY AKTIVLAR AUDITINI TAKOMILLASHTIRISH. World Scientific Research Journal, 26(3), 177–184. Retrieved from <http://www.wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/3261>
 19. Rozmatova Umida Yuldashevna. (2023). IQTISODIYOTNI RIVOJLANISH ISTIQBOLLARIDA AXBOROT KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARINING AHAMIYATI. *World Scientific Research Journal*, 16(1), 20–22. Retrieved from <http://wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/2693>